

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA INDIVIDUAL ISHLASH TEXNOLOGIYASI VA UNING SAMARADORLIGI**

Ibragimova Dildora Inomjonovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Boshlang'ich ta'lif fakulteti o'qituvchisi

Mirzanaazarova Gulhayo Murodjon qizi

Boshlang'ich ta'lif fakulteti 4-bosqich talabasi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lif samaradorligini oshirishda o'quvchilar bilan individual ishslash texnologiyasi to'g'risida so'z boradi. Ta'limda shaxsni tarbiyalash, o'quvchining mavjud imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada individual o'qitish texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari tanlanadi va turli o'quv-uslubiy, psixologik, pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali amalga oshiriladi.

**Kalit so'zlar:** Individual, individual yondashish, ijodiy ro'lli o'yinlar, individual ishslashning pedagogik va psixologik ahamiyati, o'quvchilar, individual ishslash, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ota ona bilan hamkorlik, individual ishslashga o'rgatish.

### **Аннотация**

В данной статье рассказывается о технологии индивидуальной работы со школьниками для повышения эффективности начального образования. В образовании приоритетным является воспитание личности, реализация потенциала ученика. В связи с этим большое значение имеют индивидуальные технологии обучения. В нем способы и методы обучения выбираются на основе индивидуального подхода к организации учебного процесса и реализуются посредством различных учебно-методических, психолого-педагогических и организационно-управленческих мероприятий.



**Ключевые слова:** Индивидуальность, индивидуальный подход, творческие ролевые игры, педагогическое и психологическое значение индивидуальной работы, учащиеся, индивидуальная работа, использование современных технологий, сотрудничество с родителями, обучение индивидуальной работе.

### **Annotatsiya**

In this article, individual work with students has been set in the right direction. In it, teaching ways and methods are selected based on an individual approach to the organization of the educational process, and implementation management is carried out through various educational methodological, psychological, pedagogical and organization management.

**Keywords:** Individuality, individual approach, creative role-playing games, pedagogical and psychological significance of individual work, students, individual work, use of modern technologies, cooperation with parents, individual work training.

### **Mavzuning dolzarblii**

Dars mashg'ulotlarining jamoaviy tabiat o'quvchilar o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradi, ularning bilim faolligini rag'batlantiradi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, intizom, mehnatsevarlik, do'stlik va boshqa axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Biroq, dars mashg'ulotlari jamoaviy tarzda o'tkazilsa-da, ta'lif va kognitiv faoliyat va o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish ularning tafakkuri, xotirasi, aql-zakovati, qobiliyatları, shuningdek, o'rganish motivlari va munosabatlarining individual xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu xususiyatlarni hisobga olish va dars mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar bilan individual ishlarni tashkil etish masalasi tug'iladi [1].

Ma'lumki, boshlang'ich sinf kishilarning yoshi va shaxsiyati rivojlanishidagi muhim bosqich bo'lib, u yuqori darajadagi ta'limni kafolatlashi shart. Maktab rivojlanishning turli darajalariga ega bolalarni o'qitadi va asosiy maktab har bir o'quvchiga individual o'quv dasturini taklif qila olmasligi sababli o'qituvchilarimiz individual psixologik va intellektual qobiliyatlarini hisobga olgan holda shaxsiy rivojlanishni ta'minlaydigan o'quv modellarini izlaydilar. Ta'limda qo'llaniladigan



texnologiyalarning aksariyati har bir o'quvchining individual psixologik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan holda bir xil talablarga, vaqt sarfiga, o'rganilgan material hajmiga qarab o'qitishning guruhiy uslubiga qaratilgan bo'lib, bu o'rganishda sezilarli natijalarga olib kelmaydi. Natijada nafaqat o'zlashtirishi past bo'lgan bolalar, balki juda mehnatsevar bolalar ham maktabni yoqtirmaydilar [2].

Hozirgi rivojlangan texnologiyalar davrida ta'lif muassasalarida, xususan boshlang'ich sinflarda zamonaviy texnologiyalarni to'g'ri qo'llay olish o'quv jarayonini samarali tashkil etishda katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bugungi kunda Respublikamizda ta'lif sohasiga qaratilgan e'tibor va kiritilayotgan sarmoyalar bugungi kun o'qituvchisi yelkasiga katta mas'ulyat yuklaydi va ulardan kasbiy intiluvchanlikni talab etadi. Xususan millatimiz kelajagiga va uning ravnaqiga befarq bo'lman pedagoglar uchun bugun o'sish, rivojlanish va o'zini har jihatdan ko'rsata oladigan davrlar keldi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga qilgan murojatnomasida davlat rahbari birinchi navbatda, e'tibor yangi O'zbekiston uchun eng kotta investitsiya bo'lgan ta'lifni qo'llab-quvvatlashga qaratilishini ta'kidladi. "Najot - ta'limda, najot - tarbiyada, najot – bilimda, chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi", - deydi davlat rahbari [3].

**Individual o'qitish** – bu o'quv jarayonini tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, bunda pedagog o'quvchilar bilan yakkama-yakka shug'ullanadi, tahsil oluvchi o'quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzlucksiz mustaqil ta'lif oladi.

**Individual yondashish** – bu pedagogik prinsipga ko'ra, pedagogik jarayonda o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida tahsil oluvchining rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi [4].

Individual ishslashning pedagogik va psixologik ahamiyati shundan iboratki, bu jarayonda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan alohida shug'ullanish ularning eng avvalo nutqini, bilim darajasini, erkin fikrlash va uni bayon eta olishini rivojlantiradi. Faol o'quvchilar bilan individual ishslash esa ulardagi mavjud iqtidorni yanada rivojlantirish va o'sha yo'nalishda yaxshi natija ko'rsatishda katta ahamiyat



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> April, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

kasb etadi. Sinfdag'i individual ta'larning muhim elementi bo'sh va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilarga yondashuvdir. O'quv faoliyatini yaxshilash uchun o'qituvchining alohida e'tibori va munosabatiga bo'lgan ehtiyojning umumiyl talabi o'quvchilarning turli toifalariga nisbatan turlicha bo'ladi. Agar bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi o'qishda dangasa va yetarli darajada qat'iyatli bo'lmasa, o'qituvchi uni nazorat qilishni xushmuomalalik bilan kuchaytirishi va ota-onasini shunga mos ravishda yo'naltirishi kerak. Rivojlanish darajasi yetarli va bilimda olishda kamchiliklarga ega bo'limgan o'quvchi o'qituvchining individual yordami hamda nazoratiga muhtoj emas. Muvaffaqiyatli o'quvchilarga mulohaza yuritish uchun ko'proq material berilishi, mustaqil o'rganish uchun qo'shimcha adabiyotlarni tavsiya etilishi kerak.

Bugungi kunda o'quvchilar bilan individual ishslashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'qituvchi va ta'lim oluvchiga ham qulaylik tug'dirmoqda. Ulardan to'g'ri foydalanish o'quvchining nafaqat ta'lim jarayonida balkim uyda ham ularning bo'sh vaqtidan unumli fodalanishida o'z samarasini beradi. Individual ishslashda ota onalar bilan hamkorlik qilish ta'lim jarayonidan tashqarida ham o'qituvchining o'quvchi ustidan o'z nazoratini o'rnatishiga yordam beradi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari tez chalg'uvchi, o'yinlarga beriluvchan bo'lishadi. Maktabdagi nazorat ota-ona tomonidan uyda ham me'yoricha o'rnatilsa, bu individual ishslash albatta o'z natijasini beradi.

**Tovushni top o'yini;** Bu o'yin boshlang'ich sinflar ayniqsa 1-va 2-sinflar uchun unli va undosh tovushlarni o'rgatishda yordam beradi. Bunda o'quvchilarga kamida oltita 2 va 3 bo'g'inli so'z beriladi va ulardan unli va undosh tovushlar nechtadan qatnashganini topish vazifasi beriladi. Bu integratsion usul hisoblanib o'quvchilar ona tili va o'qish savodxoligi darsida tovushlar bilan tanishishadi hamda tovushlarni sanash va ularni qo'shish natijasida matematika fanini ham takrorlab o'tishadi.

Bola – 2 ta unli, 2 ta undosh, jami 4 ta tovush mavjud

Bo'g'irsoq – 3 ta unli, 5 ta undosh, jami 8ta tovush mavjud

O'yin shu tartibda o'tkaziladi.

**NATIJA.** O'quvchilar bilan individual ishslashda quyidagi natijalarga erishishimiz mumkin: Sinfdag'i o'quvchilar bilimining sifat darajasi oshadi. Past o'zlashtiruvchi



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> April, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

o'quvchilar faol o'quvchilar safiga qo'shiladi. O'quvchilar bilan ham pedagogik ham psixologik jihatdan yaqin munosabatga kirishishga yordam beradi. O'z fikrini bayon etishga totinadigan, harakteri og'ir o'quvchilar bilan individual ishlash esa ularning ichki olamni bilishda ularni o'quv jarayoniga qiziqtirishda o'z natijasini ko'rsatadi.

Xulosa. Darsda o`quvchilar bilan individual ishlash bilimlarni tekshirish va baholash jarayonida amalga oshiriladi. Bu, birinchi navbatda, past natijalarga erishgan maktab o'quvchilari o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish uchun tez-tez sinovdan o'tkazilishida namoyon bo'ladi. Bu ularning muntazam mashg'ulotlarga borishini rag'batlantirish va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Turli didaktik vazifalarni hal qilishda darsning barcha bosqichlarida individual ishlarni bajarish tavsiya etiladi: yangi bilimlarni o'zlashtirish va ularni mustahkamlash, ko'nikma va ko'nikmalarni rivojlantirish va mustahkamlash, o'rganilganlarni umumlashtirish va takrorlash, nazorat qilish, tadqiqot usulini o'zlashtirish va hokazo. Ushbu shakl yangi materialni mustaqil o'rganishda, ayniqsa uni uyda dastlabki o'rganishda samarali qo'llaniladi. Ta'limning individuallashtirilgan shakli o'quvchilarning mustaqil faoliyati uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu shakl o'quvchilarning materialni o'zlashtirish sifatini tekshirish va mustaqil ishlash qobiliyatini aniqlash uchun har bir talaba o'rganish imkoniyatlarini hisobga olgan holda muayyan vazifani bajaradigan va ko'pincha mashq qilinadigan ishlarni shunday tashkil qilishni o'z ichiga oladi.

O'qituvchi har bir mavzu bo'yicha talabalar o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarning ta'lim minimal ro'yxatini ishlab chiqishi, tekshirish va o'zaro tekshirish uchun nazorat savollarini tanlashi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yuxati

- Сидоров, О. В. Индивидуальный подход обучения учащихся на уроках технологий / О. В. Сидоров, А. Н. Чикирев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 6.2 (110.2). — С. 97-101. — URL: <https://moluch.ru/archive/110/27169/> (дата обращения: 24.03.2023).
- [https://www.researchgate.net/publication/350212324\\_Bo'lajak\\_boshlang'ich\\_sinf\\_o'qituvchilarni\\_tayyorlashda\\_tabaqalashtirilgan\\_ta'lim\\_texnologiyasidan\\_foydalanish\\_imkoniyatlarini\\_oshirish\\_texnologiyasi](https://www.researchgate.net/publication/350212324_Bo'lajak_boshlang'ich_sinf_o'qituvchilarni_tayyorlashda_tabaqalashtirilgan_ta'lim_texnologiyasidan_foydalanish_imkoniyatlarini_oshirish_texnologiyasi)



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> April, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

3. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsyepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.
4. Pedagogik texnologiya. N.X.Avliyakulov, N.N.Musaeva. –T.: Chopo NMIU, 2012. 90-bet.
5. Краевский, В.В. Основы обучения. Дидактика и методика: учеб. пособие для вузов / В.В. Красевский – 2-е изд., стер. – М.: Академия, 2008. – 352 с.
6. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – Toshkent: 2015. 168-bet.